



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI SOG‘LIQNI SAQLASH
VAZIRLIGI TOSHKENT TIBBIYOT AKADEMIYASI REKTOR V.V.
B.INING
BUYRUG‘I**

2023 yil “18” sentabr 01529 - son

**Toshkent tibbiyot akademiyasida yangi 2023/2024-o‘quv yilini boshlash
to‘g‘risida**

Yangi o‘quv yilini sifatli tashkil etish, O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta‘lim, fan va innovatsiyalar vazirining 2023-yil 7-avgustdagi 344-son va 21-avgustdagi 367-son buyruqlari ijrosini ta‘minlash maqsadida

BUYURAMAN:

1. Yangi 2023/2024-o‘quv yilini joriy yilning 4-sentabridan boshlanishi belgilab qo‘yilsin.

2. Quyidagilar:

Oliy ta‘lim, fan va innovatsiyalar vazirining 2023-yil 7-avgustdagi 344-son va 21-avgustdagi 367-son buyruqlari bilan tasdiqlangan bakalavriat ta‘lim yo‘nalishlarining malaka talablari asosida ishlab chiqilgan o‘quv rejalari 1-ilovaga;

o‘quv dasturlari 2-ilovaga;

2023/2024-o‘quv yili uchun o‘quv jarayoni jadvali 3-ilovaga;

2023/2024-o‘quv yilida fanlar bo‘yicha o‘tkaziladigan yakuniy nazorat shakllari 4-ilovaga;

“Toshkent tibbiyot akademiyasida kredit-modul tizimida ta‘lim olayotgan (1-3 kurs) talabalar bilimini nazorat qilish va baholash tartibi” 5-ilovaga;

kafedralarning fakultetlarga birlashtirilishi ro‘yxati 6-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

3. O‘quv ishlari bo‘yicha prorektor (Sh.A.Boymuradov), O‘quv-uslubiy boshqarma boshlig‘i (F.X.Azizova), Xodimlar bo‘limi boshlig‘i (N.A.Ismatullayeva), fakultet dekanlari (I.O.Otajonov, A.A.Xamrayev, A.A.Irnazarov, F.I.Salomova, S.U.Aliyev, J.X.Tursunov, N.M.Nurullayeva), magistratura bo‘limi boshlig‘i (A.A.Imamov) va barcha kafedra mudirlariga:

2023/2024-o‘quv yilida bakalavriat ta‘lim yo‘nalishlarida o‘quv jarayonini 7- ilovaga muvofiq me‘yoriy hujjatlar asosida tashkil etilishini;

ta‘lim jarayoni o‘quv rejadagi fanlar bo‘yicha tasdiqlangan dars jadvallari asosida yo‘lga qo‘yilishini;

joriy yilning 16-sentabriga qadar birinchi kursga qabul qilingan talabalar uchun birinchi kurs maktabi, kredit-modul tizimiga kirish bo‘yicha seminarlarni onlayn tashkil etish choralarini ko‘rishni;

professor-o'qituvchilar uchun kredit-modul tizimi, raqamlashtirish asosida o'quv jarayonini olib borish yuzasidan seminarlar tashkil etilishini;

Raqamli universitet loyihasi doirasida "Oliy ta'lim jarayonlarini boshqarish – Hemis" axborot tizimiga tegishli ma'lumotlarni to'liq va talab darajasida kiritilishini, yangi kontentlar bilan to'ldirilishini;

barcha yo'nalishlarning 1-3 kurslarida talabalar bilimi va ko'nikmalarini baholash mazkur buyruqning 5-ilovasiga muvofiq amalga oshirilishini ta'minlasin.

4. Mazkur buyruq ijrosining nazorati O'quv ishlari bo'yicha prorektor Sh.A.Boymuradov zimmasiga yuklatilsin.

Rektor v.v.b.



Sh.Boymuradov

Buyruq kelishuvi

Tayyorladi:

F.Azizova

Boshqarma boshlig'i

Kelishildi:

Sh.Boymuradov

Rektor v.v.b.

N.Ismatullaeva

Bo'lim boshlig'i

I.Otajonov

Bo'lim boshlig'i

A.Xamraev

Dekan

A.Irnazarov

Dekan

F.Salomova

Dekan

S.Aliev

Dekan

J.Tursunov

Dekan

A.Imamov

Bo'lim boshlig'i

S.Yusupova

Bo'lim boshlig'i